

JIZZAX VA NUROTA VOHALARIDAGI AYRIM SUG‘ORISH INSHOOTLARINING TARIXI XUSUSIDA

I.Imonkulova

*Nizomiy nomidagi TDPU tarix
fakulteti ilmiy tadqiqotchisi*

Azaldan O‘zbekistonning tabiiy-geografik o‘rni, iqlim xususiyatlari xo‘jalikning qadimdan sun‘iy sug‘orishga asoslangan o‘troq dehqonchilik va chorvachilik kabi turlarining muttasil rivojlanishi uchun sharoit yaratgan. Bu holat o‘tmishda davlatlarning ishlab chiqarish darajasining yuksalishiga, ularning qudratining o‘shishiga turtki bo‘lgan. O‘z o‘rnida bunday xususiyat doimo mamlakatlar taraqqiyoti uchun asos bo‘luvchi xo‘jalik munosabatlarni muttasil rivojlantirishni taqozo etgan. Masalan, o‘lkada sun‘iy sug‘orishga asoslangan dehqonchilikning rivojlanganligi uchun qadimdan ulkan miqdordagi ishchi kuchlariga ehtiyoj sezilgan. Xususan, o‘rta asrlardayoq Jizzax vohasida ulkan sug‘orish tizimlari mavjud bo‘lganligi, ularni barpo etishda esa minglab xizmatchilar mehnat qilganligi tarixdan ayon .

Qadimgi Jizzax vohasida sun‘iy sug‘orishga bunchalik katta ahamiyat berilganligi avvalombor hududning tabiiy iqlim sharoitlari muhim omil bo‘lgan bo‘lsa, ikkinchidan ajdodlarimiz hayotida dehqonchilik va chorvachilik naqadar katta o‘ringa ega ekanligidan guvohlik beradi. Darvoqe o‘z o‘rnida Jizzax va Hypota hududlarining tabiiy sharoiti, iqlim xususiyatlariga mos ko‘plab qishloq xo‘jalik ekinlari, xususan, donchilik, bog‘dorchilik, polizchilik kabi sohalar rivoj topishi barobarida, ulardan olinayotgan daromad hisobidan kelayotgan soliqlar ham davlatning budjetini boyishiga xizmat qilgan.

Sardoba-quduq yoki hovuz ustiga pishgan g‘ishtdan baland qilib, gumbazsimon shaklda qurilgan sun‘iy inshoot bo‘lib, unga zinalar orqali tushilgan. Sardoba ichida havo aylanishi yaxshi bo‘lgani uchun jazirama issiqda ham uning ichi salqin, suvi esa nihoyatda muzdek bo‘lgan. Sardobalar asosan karvon yo‘llarida qurilgan.

Sardobani qurish, shuningdek uni tartibli saqlash uchun ta‘mirlashda bajariladigan qo‘l mehnatining og‘irligi tufayli aholi bunday suv inshooti bilan bog‘liq barcha ishlarni jamoa ishtirokida bajarganlar. Sardobadagi suv miqdori unchalik ko‘p bo‘lmagan, undan asosan yo‘lovchilar foydalanganligi bois, suvni ifloslamaslik, isrof qilmaslik maqsadida maxsus qorovullar tayinlangan, ularning navbati jamoa oqsoqollari tomonidan qat‘iy belgilab qo‘yilgan. Har bir sardoba ma‘lum hukmdor tashabbusi bilan qo‘l mehnati hisobiga qurilgani uchun, o‘sha jamoaning mulki hisoblangan, shunga asosan uning suvidan foydalanishda oilalar teng huquqli bo‘lib, sardoba suvi yo‘lovchilar uchun bir xilda taqsimlangan.

Tarixiy manbalarda keltirilishicha ilk o‘rta asrlarda hozirgi Jizzax, Sirdaryo va Mirzacho‘l hududlarida o‘nlab sardobalar qurilgan bo‘lib, ularning ayrimlarining o‘rni hozirgacha yaxshi saqlangan. O‘z davrida qadimgi Ustrushona davlatida ko‘plab sun‘iy sug‘orish inshootlari barpo etilgan. Mamlakat Buyuk ipak yo‘li orqali halqaro karvon savdosida faol ishtirok etadi. Samarqand, Buxoro, Shaxrisabz, Shosh va boshqa shaharlar bilan savdo, tijorat alqalarini olib borgan.

Jizzax vohasi Buxoro amirligi tarkibiga kirgan kezlarda hududdagi eng yirik daryolardan biri, Sangzor daryosi bo‘lgan. Undan Jizzax vohasini sug‘orishda keng foydalanilgan. Jizzax

shahari shu daryo orqali oqar suvlar bilan ta'minlangan. Lalmikor yerlarda ariqlar qazildi. Dehqonchilikda donli ekinlar, paxta, zig'ir, bo'yoq uchun ro'yan o'simligi, shuningdek pillachilikda tutlar ko'p ekilgan. Uzum, olma va boshqa mevalar ko'plab yetishtirilgan.

Ma'lumki azaldan O'zbekistonning tabiiy iqlim sharoiti shu mintaqaga xos sug'orish tizimlaridan foydalanishni taqoza etgan. Mintaqa aholisi qadimda turli sug'orish usullaridan foydalangan holda dalalarga suv chiqarib kelganlar va ekinlarni sug'orib dehqonchilik, chorvachilik bilan shug'illanib kelganlar. Ana shunday sug'orish tizimlaridan biri bu korizlardir. Xususan, qadimgi Jizzax (Ustrushona) davlatining ayrim lalmikor (dasht-adir mintaqa) yerlarida yerni sug'orishda korizlardan keng foydalanilganligi barchaga ayon.

Koriz- o'tmishda lalmi dehqonchilik yerlar va dasht hududlarda dalalarni sug'orish uchun qazilgan sun'iy sug'orish inshooti. Aslida bu atama gidronim bo'lib, qish va bahorda yoqqan qor va yomg'ir suvlarining tekislik hududlarda yer ostidan sizib chiqishi va to'planishidan hosil bo'lgan va uni jamlash orqali yig'iladigan suv inshooti. Bunday suvni dalalarga chiqarish uchun korizlar yer osti zovurlari orali o'zaro bog'langan. Sug'orishning bunday an'anaviy turi O'zbekistonning Farg'ona vodiysi, Qashqadaryo, Samarqand, Jizzax, Navoiy viloyati Nurota tumanlarida keng tarqalgan .

Koriz kovlash, shuningdek korizni tartibli saqlash uchun ta'mirlashda bajariladigan qo'l mehnatining og'irligi tufayli korizdor dehqonlar bunday yer osti inshooti bilan bog'liq barcha ishlarni jamoa a'zolarining ko'magida bajarganlar. Korizdan oqib chiqadigan suv miqdori unchalik ko'p bo'lmaganligi bois, undan foydalanuvchi oilalarning navbati qishloq dehqonzodalari yoki oqsoqollari tomonidan qat'iy belgilab qo'yilgan va boshqarilgan.

Qadimgi Jizzaxning tog' qishloqlarida ham bog' va ekinzorlar aynan koriz suvlari bilan sug'orilgan. Sug'orish tizimining bunday ko'rinishi O'zbekistonning boshqa hududlarida ham uchraydi. Jumladan, Qashqadaryo, Toshkent vohasi tog' qishloqlarida koriz, soy va buloq suvidan bedazor, poliz yerlari, bog'lar hatto sholi, paxta ham sug'orilganligi haqidagi ma'lumotlar uchraydi.

Har ikki vohada ham koriz suvidan har bir oila navbat bilan foydalanganlar. Koriz kovlash, shuningdek korizni tartibli saqlash uchun ta'mirlashda bajariladigan qo'l mehnatining og'irligi tufayli korizdor dehqonlar bunday yer osti inshooti bilan bog'liq barcha ishlarni bir necha oila ishtirokida bajarganlar. Korizdan oqib chiqadigan suv miqdori unchalik ko'p bo'lmaganligi bois, undan foydalanuvchi oilalarning navbati jamoa oqsoqollari tomonidan qat'iy belgilab qo'yilgan. Masalan, kichikrok korizlarda korizdor xo'jaliklar soni 24 yoki 36 tanadan oshmagan. Har bir koriz jamoa kuchi hisobiga qurilgani uchun, o'sha jamoaning mulki hisoblangan.

F. Tolipovning yozishicha suv taqsimoti asosida xo'jalik yuritishda har bir korizdor xo'jalik 2 - 3 guruhga bo'linganlar. Har bir guruh kichikroq korizlarda 2 - 3 xo'jalikdan, kattaroq korizda 4-5 xo'jalikdan iborat bo'lgan bunday uyushmani Nurota va Qo'shrabotda hamboz yoki sherik deb ataganlar. Koriz suvi bilan sug'oriladigan yer maydoni ham hambozlarning soniga qarab bo'lingan. Har bir yer bo'lagi taxta deb atalgan. Katta korizlarda taxta 16 tanob (4 gektar) va kichik korizlarda 6 - 8 tanob (1,5 - 2 gektar) ga teng bo'lgan. Koriz kovlashda bir qancha korizdor xo'jaliklar oylab hatto yillab quduq kovlashga to'g'ri kelgan. Shu sababli har bir oila jamoa ko'magiga ehtiyoj sezgan .

Suv taqsimotida navbat qoidasiga qat'iy amal qilingan. Har yili bahorda ambozlar

o'rtasida chek tashlash yo'li bilan taxtalar taqsimlanib, sug'orish navbati belgilangan. Chunonchi, navbatlar turlicha ya'ni, davriy navbat, ariqlar o'rtasidagi navbat, qishloqlar o'rtasidagi navbat, bir-biriga qo'shni urug'-jamoalar o'rtasidagi navbat, xo'jaliklar o'rtasidagi navbat va hakoza. Odatda suvdan foydalanish bir, ikki sutka bilan belgilanib, u shabi-ro'z, ya'ni kecha-kunduz deb atalgan. Bunday o'zaro hamkorlik natijasida jamoa a'zolari oilalarning katta-kichikligi, tomorqaning hajmini hisobga olib suvdan foydalanish me'yorini belgilaganlar .

Jumladan yetim yesir oilalarga birinchi navbatda suv navbatlari belgilangan. Ba'zan, oilalar qarindosh-urug'chilik asosida qishloq hududini ma'lum qismini egallagan bo'lsalar, belgilangan tartibda suv olganlar. Navbatga suv taqchil mahalda qat'iy amal qilinib, sug'oriladigan yer maydoni ham oilalar soniga qarab bo'lingan. O'zaro sherikchilik tarzidagi qoidaga amal qilmaganlarga qishloq jamoasi oqsoqoli mirob yordamida choralar ko'rgan, ya'ni o'sha oila keyingi navbatdan chiqarilgan yoki umuman suvdan mahrum qilingan.

Korizdagi quduqlar bir necha oilalarga tegishli bo'lgan. Har bir xo'jalik qudug'ining soniga qarab bog'ini sug'organ. Bir necha oilalar o'zaro kelishib o'z quduqlarini sotish huquqiga ham ega bo'lganlar. Uning narxi ancha qimmat bo'lib, botmon hisobida g'alla yoki bosh hisobida qo'y, sigir, tuya bilan belgilangan. Eng sersuv korizlarning bir kora suvi 20 - 25 qo'y narxiga teng bo'lgan.

Bu yerda suv tanqis bo'lganligi uchun kim korizni sotib olsa yoki meros tariqasida otabobolaridan qabul qilsa, shu korizdan suv oladigan qishloq jamoasini chaqirib ziyofat bergan, jamoa oqsoqoliga narsalar ulashgan. Beriladigan bunday ziyofat «nimmardi», otasiga tegishli suvga ega bo'lsa «padari murd» deb atalgan . Shu ziyofatdan so'ng korizdor kishi koriz jamoasiga qo'shilgan. XX asr o'rtalarigacha eng korizlar anchagina qimmat narxda qo'ldan-qo'lga o'tib turgan .

Umuman, o'tmishda Jizzax va Nurota vohalaridagi ayrim sug'orish inshootlarining o'ziga xos shakllanish va rivojlanish tarixi mavjud bo'lgan. Hududlarining tabiiy sharoiti, iqlim xususiyatlariga mos ko'plab qishloq xo'jalik ekinlari, xususan, donchilik, bog'dorchilik, polizchilik kabi sohalar rivoj topishi barobarida, ulardan olinayotgan daromad hisobidan kelayotgan soliqlar ham davlatning budjetini boyishiga xizmat qilganligini tasdiqladi.

ADABIYOTLAR:

1. Tolstov S.P. Основные вопросы древнейшей истории Средней Азии. VDI. №1, -М. 1938.
2. Ishquvatov V, Tolipov F. Mahalla: o'tmishda va bugun. T., 20014. 83-84 betlar.
3. Tolipov F. Nurota vohasi aholisi oilaviy turmush tarzida jamoa an'analari" (XIX asr oxiri - XX asr boshlari) mazuidagi nomzodlik dissertatsiyasi.-T; 2006.-B. 79-80
4. Shavkat Ismoilzoda. Sudur bobo yoxud Nurato tarixidan sahifalar. – T., 2005. – B. 64.
5. Бабаханов А.Б. О некоторых древних водохозяйственных сооружениях Узбекистана // Изв. АН УзССР. – 1959. – № 4. – С. 45